

TALABALARDA O`QUV PORTRETLARI BILAN IJODIY PORTRET O`RTASIDAGI FARQLAR HAQIDA AMALIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH

Nurnazarov Xudoyberdi Doniyorovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik talim tasviriy san’at fanlari
kafedrasi o’qituvchisi, Jizzax sh., O’zbekiston
[e-mail:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com](mailto:nurnazarovxudoyberdi@gmail.com)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, odam qomatini tasvirlash bilan birgalikda ijodiy va o’quv portretlarining farqlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: ijodiy portret, o’quv portret, nisbat, qalamchizgi, mimika, yuz bo’laklari.

Abstract. This article talks about the differences between creative and educational portraits, along with the development of students' creative abilities and the depiction of the human figure.

Key words: creative portrait, educational portrait, proportion, pencil drawing, facial expressions, facial expressions.

O’zbekiston xalq rassomi Malik Nabiev mashhur «Amir Temur portreti»ni yaratishda qiyofa ilmidan habardor bo’lgani juda qo’l kelganligi haqida shunday deydi:

«...portret chizish hammaning ham qo’lidan kelavermaydi. Bu sohada ishlaydigan ijodkor-rassom, avvalo, arxeologiya, tarix, anatomiya (odamning gavda tuzilishi) va qiyofa ilmi (fiziognomika) fanlarini chukur bilishi kerak. Masalan, men o’zim plastik anatomiyani o’rganish uchun ToshMiga to’rt yil qatnaganman. Parijda o’qib kelgan Matveev degan o’qituvchimiz bo’lardi. O’ta zukko, bilimli va tajribali edi. Kabinetida yuzdan ortiq millatning kalla suyaklari terib qo’yilgan bo’lib, men u erda haftalab qolib ketardim. Qosh suyagi erkaklarda bo’rtib chiqishi, ayollarda tekis bo’lishini o’shanda o’rganganman. Mimika, ya’ni yuz muskullari, albatta, harakatga keladi, qoshi chimiriladi».

Ijodiy portretlar ishlash jarayonida har bir insonni qoshi, og’zi, qulog’i, burni fe’l-atfori bog’liq tasvirlanishi lozim. Shuning uchun qoshni tasvirlanish ko’rinishlarini o’rganib chiqamiz. Hayotda enli, uzun qosh eng ajoyibi hisoblanadi. Uning shakli, rangi, qalinligiga ko’ra mutanosib rivojlanishi, kishi-ning hissiyoti, aqli va fe’l-atfori o’zaro uyg’unlikda ekanligidan dalolat beradi. Dag’al va baroq qosh esa, buning aksini ko’rsatadi. Chiroyli qosh uning egasi atrofida gilar bilan yaxshi munosabatda bo’lishini ko’rsatadi.

Qalin qoshning tashqi uchlari ko’tarilib turishi oliyhimmat-lik va mardlik alomatidir. Qoshning tashqi uchlari pastga qayrilishi tortinchoq-likni bildiradi. Bunday qoshning tuzilishi va rangi ko’rimsiz bo’lsa, bu - yurakdagi jo’shqinlik tugagani alomatidir. Qosh tekis va uzun, atrofdagi terisi tiniq rangda bo’lsa, bunday erkak aqllidir. Shunday ayol esa, tantiq hisoblanadi va undan istalgan hatti-harakatni kutish mumkin. Kalta qosh hamisha bu xususiyatlarning teskarisini anglatadi. Biroq kalta, lekin qalin qosh birdan lovullab ketuvchi odamga xos. Qalin, supurgiqosh «iblisona» fe’l-atforli odamda uchraydi. Supurgiqosh doim o’jarlik, sarkashlik, murosasozlik alomatidir. Enli, qalin va payvasta qosh boshqalardan ustun bo’lishga zo’r berib urinishni bildiradi. Bunday ayollar kuchli xarakterga ega ekanligidan, lekin uy bekasi bo’lolmaydi.

Yuqori joylashgan qosh - maqsadga intilish alomati. Past joylashgan qosh esa - buning aksidir. Inson ko’zi azaldan qalb ko’zgusi deb ta’riflanadi. Kishining ichki kechinmalari hamisha ko’zidan ko’rinib turadi. Jozibador va maftunkor ko’z egasi sog’lom, irodali, aqlli, jo’shqin, yuragida o’ti bor odam bo’ladi. Olimlarning fikriga ko’ra, bunday ko’zlar bir qator xususiyatlarga ega bo’lib, nur va ilqlik taratib turadi, qovoqlar bilan yaxshi himoyalangan, rangdor pardasi ifodali, serma’no. Mabodo shunday bo’lmasa, bu - kishining fe’l-atvori va aql-idrokida nuqson borligini ko’rsatadi. Ko’zlari yirik-yirik odam, serhissiyot, sezgir, aksari hollarda mard va jasur, hatto etakchilikka intiluvchan bo’ladi. Kichkina ko’zlar esa ko’pincha ichimdagini top deydigan, goho o’ziga bino qo’ygan, o’jar odamlarga xos. Aksari hollarda bunday kishilar hayratlanarli darajada sobit bo’lishadi.

Rangdor pardaning yirikligi - yumshoq muomala va osoyishtalik belgisi, kichikligi esa ichki jarayonlarning o’zaro nomuvofiq-ligidan darak beradi. Rangdor pardaning rangi odamda hayotiy kuchlar bor-yo’qligini ko’rsatadi: qora, jigarrang va yashil ko’z pardasi jo’shqinlik, g’ayratdan; moviy rang - ta’sirchanlikdan: och jigarrang parda - tortinchoqlikdan dalolat beradi.

Ko’zlarning qanday joylashuvida ham o’ziga xos ma’no bor. Ikkovi bitta gorizontal chiziqda joylashuvi yaxshi alomat. Ko’zlarning pastroq joylashuvi erkaklarda dovyuraklik, qat’iy-likdan, ayollarda esa engiltaklikdan dalolat beradi. Yuqori qovoqning salqib turishi - etuklik belgisi, juda osilib ketishi esa, erkaklarda jo’shqinlik, g’ayrat tugaganini ko’rsatadi. Qovoqning yoqimsiz rangi fiziologik jarayonlar izdan chiqqanini ko’rsatadi. Pastki qovoqning salkib turishi - jo’shqin hayot belgisi, osilib tushishi, boshqacha aytganda, ko’z kaltasi mayl-xohishlar betiyiqligidan dalolat beradi. Ustki va pastki qovoqlarning shishib turishi esa - hayotdan toliqish alomati. Ko’zlarning tashqi burchagi serajinligi - ziyraklik, aql-zakovat belgisi.

Yaponlar, shuningdek, ko`zlarni turlarga ham ajratishadi. Ajdarho ko`zlari deb ataluvchi yirik-yirik, chaqnab turuvchi, tirak ko`zlar, odatda, hukmfarmon odamlarda uchraydi. Ikki chekkasi yuqoriga qayrilgan uzunchoq ko`zlar qaqnus qush ko`zlari deb ataladi, ular odatda nozik didli odamlarda bo`ladi. Qovoqlari qatmaqat taxlanuvchi yirik-yirik ko`zlar sherning ko`zlari deyiladi. Boshqalarni ortidan ergashtira oluvchi etakchi odamlar shunday ko`zga ega. Qovoqlari ikki-uch qavatli ensiz, uzunchoq ko`zlar filda bo`ladi. Ular odatda yumshoq muomalali semiz kishilarda uchraydi. Sarg`ish tusda yaltirovchi yumaloq ko`zlar - yo`lbarsniki, rangdor pardasi qoramtir-sarg`ish tUSDagi ensiz va kichik ko`zlar - qo`yniki; qovoqlari salqigan, bichimi uch burchakli ko`zlar - otniki; rangdjor pardasi haddan ziyod katta ko`zlar - bo`rinikidir. Yaponiyada qirqaqa yaqin ko`z turlari o`zaro farq-lanadi. Ularning bari hayvonlar ko`ziga qiyoslanadi va muayyan hayvonga xos xatti - harakat ko`zlari o`sha turdagi odamga ham xos deb hisoblanadi. Portret ishlash jarayonida ko`zlarning ranglari qanday bo`lishini mazmuni va ahamiyati kattadir. Ayrim ruhshunoslarning fikriga ko`ra qorako`z kishilar qat`iyatli, bardoshli, ancha jo`shqin va shijoatli bo`lishadi. Rahbar lavozimida turgan odam serzarda bo`ladi. Muammolar tug`ilganda, tezda eng muhim echimini topa oladi. Vazifasidan voz kechib ketishga ham tayyor. Och-jigarrang ko`zlar egasi - o`z qobig`iga o`ralib olgan, ichimdagini top deydigan va o`zini o`ylaydigan kishilardir. Ular bir hildagi ishni osongina bajarishadi. Biroq, boshqa biron buyruq berishini ko`tarisha olmaydi. Aksincha, o`z holatiga ko`yib berilsa, juda yaxshi ishlashadi. Ko`kko`z kishilar chidamli, hissiyotga uncha berilmaydigan, turmushdagi bir xillik esa ularga yomon ta'sir qiladi. Ular, odatda, badqovok, dilgin kishilardir.

Kishidagi hayotiy kuchlar qay darajadiligini aniqlashga og`izning shakl va o`lchamlar tasviri ko`rsatadi. Yaponlar erkaklarning og`zi katta, ayollarniki esa, aksincha, kichkina bo`lishini ma'qul ko`rishadi. Og`zi katta ayol mardonavor deb hisoblanadi, biroq bu erkaklarga ko`pda yoqavermaydi. Umumiy xulosalar quyidagicha. Og`zi tor kishilar tirikchilik payiga tushgan bo`ladi, irodasi zaif. Yupqa lablar - injiqlik, serzardalik belgisi. Og`zi katta bo`lib, burchaklari pastga qayrilgan odam kuchli irodaga ega, unga ta'sir ko`rsatish oson emas. Lablarning hadeganda uchib turishi - asabiylik alomati.

Burchaklari pastga qayrilgan kichkina og`iz ta'sirchan kishilarda uchraydi. Do`rdoq lablar - muvaffaqiyat g`arovi. Og`iz-ning qiyshaymay, bir tekis ochilishi his-tuyg`ular jilovlan-ganini ko`rsatadi. Agar og`iz burchaklariga ko`zlardan ajin tushib kelsa, bu - mashaqqatli hayot belgisi. Mabodo shunday ajinlar og`iz burchaklariga burunning ikki tomonidan tushib kelsa, bu - makkorlik alomati. Qajar,

qaysar odamning ogʻzi, odatda, bir tomonga qiyshayib turadi. Yuqori labning oldinga chiqishi - qatʼiyatsizlikdan, pastki labning chiqib turishi esa - xudbinlikdan dalolat beradi. Lablar ustidagi ajinlar - qarish alomati. Bu ajinlarning ingichkaligi, koʻpincha, salomatlik zaifligini koʻrsatadi. Labdagi chuqur ajinlar esa gullagan yoshlikdan va etuklikdagi muhtojliklardan dalolat beradi. Chirigan tish hamda kasallangan til salomatlik yomonligini koʻrsatadi. Albatta, bu barcha belgilarni Qalamtasvirdan ijodiy ishlarni bajarish jarayonida ijobiy taʼsirini koʻrsatadi. Shu bilan birga inson-ning yana bir aʼzosi boʻlmish quloqni koʻrinish tasviri haqida soʻz yuritamiz. Quloqning tuzilishi toʻrt qismga boʻlinadi: tashqi hoshiya, oʻrta hoshiya, ichki hoshiya va solinchak - pastki yumshoq qismi. Quloq boʻyicha, odatda bolalik qanday oʻtganini aniqlanadi. Bunda umumiy qoidalar quyidagicha: yaxshi shakllangan quloq baxtli bolalikdan darak beradi. Quloqning qingʻir - qiyshiqqligi va rangparligi - koʻngilsizliklar darakchisi. Shalpangquloq qariyb hamisha shaxsiyatdagi qusurlardan dalolat beradi. Chuchvara quloq - baxtsizlik alomati.

Quloqlar boshda qanday joylashgani ham koʻp narsani anglatadi. Quloqning yuqori uchi qoshdan baland boʻlishi yuksak aql-zakovatni koʻrsatadi; koʻz bilan bir chiziqda joylashuvi - aql-idroq oʻrtachadan yuqoriligini; koʻzdan past boʻlishi aql-idroq oʻrtacha yoki undan pastligini bildiradi. Quloqning solinchagi yaxshi shakllanmagani shaxsiyatdagi nomuvofiqliklardan darak beradi. Solinchakning uzunligi - begʻamlilik, yaqqol sezilmasligi - nozik tabiat, inijlik belgisi. Solinchagi juda katta odamlar Sharqda donishmand sanaladi. Agar u sal oldinga chiqib tursa, bu - samimiylik alomati.

Quloqning ichki hoshiyasi his-tuygʻular koʻrsatkichidir: u ichkariga tortilgan boʻlsa - vazminlik, bosiqlik, tashqariga chiqib turgan boʻlsa - jizzakilik belgisi. Quloqning och qizgʻish rangi maqbul hisoblanadi, sargʻish yoki koʻkimtir rang kasallikdan darak beradi. Quloqning oldingi va yuqori qismlari yoqimtir rang boʻlishi - yashirin kasallik alomati. Quloq ichida xol boʻlishi - koʻngilsizlik, baxtsizlik belgisi.

Akademik portret talablari

«Akademik tasvir» deyilganda realistik sanʼat printsiplari va uslublari nazarda tutiladi, ularning har bir vazifasi ilmiy-nazariy asosga ega boʻladi, akademik taʼlim esa maʼlum badiiy tizimga boʻysunadi. Akademik taʼlim tizimi, asosan, gʻarbiy Evropa, rus va oʻzbek milliy haqqoniy sanʼatining eng yaxshi anʼanalariga, hozirgi zamon sanʼat pedagogika va psixologiyaning ilmiy jihatlariga asoslanadi. Akademik taʼlim yosh rassomga borliq xodisalarning goʻzallik va betakrorligini namoyon etadi va moddiy borliqning obʼektiv qonunlarini ochadi.

Bularning hammasi tabiatning eng go`zal mahsuli, inson qiyofasi, xususan, odam boshini tasvirlashga ham bevosita aloqadordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraslov, N. Tolipov. Rangtasvir. -T.: “Bilim”, O`MKHTM. 2005.
2. B. Boymetov, S. Abdiraslov. Chizmatasvir. –T.: G`ofur G`ulom-matbaa ijodiy uy. 2004.
3. B. Boymetov. Portret qalamtasviri. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2001.